



TIKUV BUYUMLARINI ISHLAB CHIQARISHDA TEXNOLOGIK JARAYONLARINI LOYIHALASHNING TAKOMILLASHTIRISH YO`LLARI.

D.X.Rayimberdiyeva, R.A. Ergasheva, Sharofiddinova M.K.

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Annotatsiya. Maqolada Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng barsha sohalar kabi yengil sanoatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda Respublikamiz tikuvchilikl sanoat qo'shma korxonalari va firmalar oldida turgan dolzarb muammolardan biri – bu ommaviy ishlab shiqarish korxonalari tomonidan tayyorlanayotgan tikuv buyumlari mahsulotlarni jahon standartiga mos, sifatli va raqobatbardosh darajada ichki va tashqi bozorlarga olib chiqishdan iboratdir. Tikuv-trikotaj buyumlarini ishlab chiqarishga bo'lgan talablar bugungi kunda tobora ortib bormoqda. Shuning ushun bu korxonada mehnat unumdarligini oshirish borasida olib borilgan tadqiqotlar maqolani dolzarb muammosi ekanligini ko`rsatadi.

Tayanch so`zlar: ichki va tashqi bozor, tikuv trikotaj, futbolka quvvati, ishchi soni, tikuv mashinasi, smena davomiyligi, vaqt sarfi, mehnat unumdarligi, oqim ma`romi, tikuv buyumini sermehnatliligi, mehnat samaradorligi, ishchi kuchi.

Respublika to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o'zlashtirish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish, modernizatsiya qilishning strategik muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihamalarni amalga oshirish hisobiga yuqori texnologiyali yangi ish o'rinalarini yaratish, korxonalarni texnik va texnologik yangilash, ilg'or "klaster modeli"ni joriy etishga qaratilgan tarkibiy qayta tashkil etishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, tikuvchilik ishlab chiqarish sanoati rivojlanishining har tomonlama tahlili, raqobatning kuchayishi sharoitida jahon bozorining o'zgaruvchan kon'yunkturasi sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yanada barqaror va jadal rivojlanishi mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalar kabi tikuv-trikotaj buyumlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda Respublikamiz to'qimachilik va yengil sanoat qo'shma korxonalari va firmalar oldida turgan dolzarb muammolardan biri – bu ommaviy ishlab shiqarish korxonalari tomonidan tayyorlanayotgan tikuv buyumlari mahsulotlarni jahon standartiga mos, sifatli va raqobatbardosh darajada ichki va tashqi bozorlarga olib chiqishdan iboratdir. Viloyatdagi ishlab chiqaruvchi korxonalarda tikuv trikotaj buyumlarini ishlab chiqarishga bo'lgan talablar ortib bormoqda. Ayni paytda Namangan viloyati bo'yicha o'ttizdan ortiq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tikuvchilik yo'nalishida ko'plab yangi texnika va



texnologiyaga asoslangan loyihalarni amalga oshirayotganliklari e'tiborga molikdir. Ular orasida Imron TEXTILE GROUP MChJ, "Zamin Lyuks Tekstil", "Tekstil Libos", "Lyuks Plyus servis", "Rauf Aziz", "Mohinur liboslari", "Faxr Tekstil Savdo", "Namangan kiyim sanoati", "So'g'diyona fayz tekstil", "Olis koinot" MCHJ, "Bek textile" MCHJ, "Ismatullo sanoat servis" MChJ, "Dilbar" Tekstil, Musluma Gavharoy" MChJ, Qaytmas Zamin MCHJ, "Ishonch" MChJ, "Unique still" tekstil" MChJ kabi korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.

Yuqorida nomlari keltirilgan mazkur ro'yxatning oldingi saflarida "Imron TEXTILE GROUP" mas'uliyati cheklangan jamiyatni ham joy olgan.

Namangan shahrida faoliyat ko`rsatayotgan "Imron TEXTILE GROUP" ma'sulyati cheklangan jamiyatining ochilish ma`rosimi 2015 yilda ish faoliyatini boshladi. "IMRON TEXTILE GROUP" xususiy korxonasi 2015-yilda "vodiyo yog`och savdo" xususiy korxonasi qoshida tashkil etilgan. Xususiy korxona 2015 yildan O'zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasi a'zosi hisoblangan. 2012 yilda "vodiyo yog`och savdo" nomi bilan faoliyat yuritgan bo`lib xususiy korxonasi "tashabbus-2012" respublika saralash tanlovida ishtirok etib, "yilning eng yosh tadbirkori" faxriy unvoni bilan korxona raxbari taqdirlandi...

Dastlabki yillarda korxonada 10 nafar ishchi ish boshlagan bo`lib, ular 1022 rusumli tikuv mashinasida ish boshlagan. Mexnat samaradorligi eski jihozlarda ishlangani bois korxonada mexnat unumdarligi past edi.

Xozirgi vaqtarda korxonada 500 nafar ishchi faoliyat olib bormoqda, ularidan 15 nafari – muhandis-texnik xodimlar, 150 nafar ishchidan, 135 nafari ayollardir.

Bugungi kunda korxonada Rossiya, Xitoy, Turkiya tikuv mashinalarida, dazmol va presslarida ish rejimi davom etmoqda. Bir oqimda 45 dona Xitoy Respublikasida ishlab chiqarilgan Jack tikuv mashinalarida tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda. (Averlo, raspishalka, universal)

"IMRON TEXTILE GROUP" masuliyati cheklangan jamiyatni bugungi kunda Namangan viloyatidagi yetakchi tikuvchilik ishlab chiqarish korxonalaridan biri sanaladi. Korxona Xitoy tizimi bo'yicha ishlab, o'zining sifatlari mahsulotlarini ichki va tashqi bozorda sotib kelmoqda. Korxona zamonaviy avtomatik loyihalash qurilmalari, tikuv mashinalari, namlab isitib ishlov berish qurilmalari, bichuv uskunalarini bilan jihozlangan.

Korxona quyidagi bo'limlardan iborat:

1. Boshqaruv bo'limi
2. Savdo bo'limi
3. Modeler-konstrukturlik bo'limi
4. Bichuv bo'limi
5. Tikuv sexi
6. Namlab isitib ishlov berish bo'limi

Tayyorlov bichuv sexida ikki kishi ishlaydi,



materiallarni o'rovidan ochish ularni tikish, tashish uchun tayyorlash, ba'zi materiallarni dazmollash, ularni nuqsonlarini aniqlash, ularni bartaraf etish yoki qaytarish bilan shug'ullanadilar, materiallarni o'rovidan ochib namlab-isitib ishlov berishga tayyorlash "MAS" rusumli qurilmada bajariladi.

Buyurtmalar savdo bo'limi orqali beriladi. Buyurtma qog'ozida buyurtmachining nomeri, buyurtma berilgan muddat, mas'ul hodimlar imzosi, materiallar nomeri, furnituralar nomi, bajarilish muddati, modellarning o'zgarishi kabi ma'lumotlar aks etadi. Ishchilar mana shu buyurtmaga asosan ishlarni bajarishadi. Buyurtmani muddatida bajarilish asosiy masala hisoblanadi.

Xususiy korxonaning asosiy mijozlari-Rossiya Federatsiyasi va MDH davlatlari. Materiallar asosan futbolka, kopyushonli jenfer, o`g'il bolalar sarochkasi uchun sotib olinadi.

Korxona o'z mahsulotlarini sifatli ishlab chiqarishi uchun sifatli hom ashyo furnituralar, qo'shimcha materiallar, zamonaviy asbob uskunalarni ishlatilishi talab etiladi. "IMRON TEXTILE GROUP" masuliyati cheklangan jamiyatni **karlisuprem** 100% paxta, 10% **Laykra** tikuv trikotaj materiallari asosida ishlatib kelmoqda. Korxona asosan futbolkalarni ko'p miqdorda ishlab chiqaradi.

Korxonaga materiallar keltirilgandan so'ng ularni omborda saqlanadi. Materiallar omborida palkalarga joylanadi. Har bir palkadagi materialarning turi, rangi, artikuli bo'yicha joylashtiriladi. Omborda materiallar, iplar, aplikatsiyalar saqlanadi.

«IMRON TEXTILE GROUP» masuliyati cheklangan jamiyatni ikkita katta alohida sexlardan iborat.

Materiallar ikkinchi sexdagi katta omborga keltiriladi. Mazkur omborning sig'imi juda katta bo'lib, materiallar zahirasi vazifasini ham bajaradi. Bunda ishlab chiqarishning materiallar tanqisligi muammosi kelib chiqmaydi. Materiallar va furnituralarni qabul qilish bilan bitta hodim shug'ullanadi. Bu hodimning vazifalari materiallarni vaqtida sexga yetkazib berish, furnituralarga buyurtma berishdan iborat. Korxonaga material kelganda hodim hammasini tekshirib oladi. Uning rangi, artikuli, metri, pasporti, buyurtmaga to'g'ri kelishi va boshqalarni tekshirib so'ngra qabul qilinadi.

Mahsulotlar va etkazib beruvchilarining lentasini yanada aniqroq qurish uchun Xususiy korxonaga 70 dan ortiq tikuv va bosma mashinalar xarid qilindi. Tayyor trikotaj mahsulotlarining ishlashi oyiga 125 000 tagacha.

Birinchi oqimda tikuv masninalarini joylanishi

1-jadval

	Ishlab chiqarilgan davlat	Chok turi	Ishlatilishi	Soni (dona)
--	---------------------------	-----------	--------------	-------------



1.	Jack 2-x	Chokni puxtalash		1
2.	Jack a 2	To`g`ri bahya	Yelka yon choklarni biriktirish	2
3.	Jack 8569	Tikib yo`rmash	Yeng uchi	7
4.	Jack W4	Beyka tikish	Bo`yin o`mizi	1
5.	JK 804DM224	Yo`rmash		3
Jami				14

Namangan viloyatida shunday mahsulotni ishlab chiqaruvchilar soni ortganligi, raqobatni kuchayishi tufayli, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish zaruriyati tug'ildi.

Korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotlar

2-jadval

T/R	Mahsulot nomi	Foizda
1.	O`gil bolalar futbolkasi	40 %
2.	Qiz bolalar futbolkasi	40 %
2.	Kapyushonli jenfer	10 %
3.	O`g`il bolalar sarochkasi	10 %

Ishlab chiqarish oqimining loyixalash dastlabki ma'lumotlari sifatida quyidagi parametrlar olinadi.

Faoliyat turi: tikuv-trikotaj liboslari ishlab chiqarish.

Assortiment: o`g`il va qiz bolalar futbolkasi, kapyushonli jenfer, o`g`il bolalar trikotaj sarochkasi.....

Sotilayotgan mahsulotning ortacha yillik xajmi: **750** mln.so'm.

Bir kunda ishlab chiqarilgan mahsulot quvvati: 800-1000 dona

R-smena davomiyligi,=28800 sek

N-ishlab chiqarish oqimida ishchilar soni, ishchi

T_b – loyihalanayotgan buyum sermehnatliligi,sekund



M- ishlab chiqarish oqimining quvvati, ya`ni bir smenada ishlab chiqariladigan mahsulotsoni (dona)

O`g`il bolalar futbolkasini ishlab chiqarish oqimining quvvati

$$M_{sm} = \frac{R * N}{T_b} = \frac{28800 * 40}{1280} = 900 \text{ dona}$$

bunda: R – smena davomiyligi 28800 sekundga teng;

T_b – buyum sermehnatliligi, sekund.

O`g`il bolalar futbolkasini ishlab chiqarish oqimidagi ishchilar soni – N /ishchi/:

$$N = \frac{M * T\delta}{R} = \frac{900 * 1280}{28800} = 40 \text{ ta};$$

Loyihalanayotgan ishlab chiqarish oqim bir ma'romda ishlashini ta'minlash uchun, ishlab chiqarish jarayonining ma'romini - τ /s/ hisoblanadi.

O`g`il bolalar futbolkasini ishlab chiqarish oqimining taktini topish

$$\tau = \frac{R}{M} = \frac{28800}{900} = 32 \text{ sek}$$

Ishlab chiqarish oqim parametrlarini hisoblash

3-jadval

Nº	Parametrlar nomi	Shartli belgisi	Formulasi	Sonli izohi	O`lcham birligi
1	2	3	4	5	6
1	Ishlab chiqarish oqim quvvati	M _{CMEH}	$\frac{N * R}{T\delta}$	900	dona
2	Ishlab chiqarish oqimidagi ishchilar soni	N	$\frac{M * T\delta}{R}$	40	ishchi
3	Ishlab chiqarish oqim ma`romi	τ	$\tau = R/M$	32	sek



	/takti/				
--	---------	--	--	--	--

Xulosa qilib shuni aytish kerakki «IMRON TEXTILE GROUP» ma`suliyatini cheklangan jamiyatida bugungi kunda mehnat unumdorligi yuqori bo`lgan zamonaviy mashinalarni qo'llab, bir smenada 40 nafar ishchi 900 dona buyum ishlab chiqarish hamda ushbu buyum tayyor bo`lishi uchun 1280 sekund vaqtini sarf bo`lishi aniqlandi.

Tadqiqotlarda olib borilgan hisob kitoblar natijasiga ko`ra loyihalanayotgan korxona ixtiyorida qolgan sof foyda 367838,3 so`mni tashkil etdi. Ishlab chiqarish korxonasida to`lanadigan har xil soliqlar mahsulot to`la tannarxining va ish xaqining belgilangan foizida to`lanishi ishlab chiqildi. Mahsulotning bozorda sotish bahosi 20500 so`mni tashkil qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-dekabrdagi "2017-2019 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari dasturi to'g'risida "gi PQ-2687-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4947-sonli Farmoni. 2017-2021 yillarda Ozbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson ma'nfatlari yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi.
3. N.N.Nabidjanova, M.A.Rizametova, D.X.Rayimberdiyeva, R.A.Ergasheva "Tikuv buyumlar texnologiyasi" fanidan o'quv qo'llanma Namangan. 2020 yil
4. Sh.G.Majidova, M.K.Rasulova "Tehnologik jarayonlarni loyihalash". Darslik. T.2011
6. Internet ma`lumotlari